



BOBUR MIRZO SHAXSIYATINING BADIY TALQINI

Ilmiy rahbar

SANOBAR SAIDAZIMOVA

SamDCHTI Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrası o'qituvchisi,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SEVINCH NIGMATULLAYEVA

SamDCHTI Roman-german tillari fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani asosida Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyatining badiiy talqini tahlil qilingan. Asarda Bobur obrazining tarixiy va badiiy uyg'unligi, uning murakkab hayot yo'li, ruhiy kechinmalari hamda insoniy fazilatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: badiiy tahlil, tarixiy obraz, ruboiy, barlos, totalitar.

O'zbek mumtoz adabiyoti va tarixida Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati alohida o'rin egallaydi. U nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki nozik didli shoir, chuqur tafakkur egasi sifatida ham tanilgan. Bobur siymosi badiiy adabiyotda turli qirralarda tasvirlangan. Bobur obrazining badiiy tahlili ayniqsa Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida uning murakkab va ko'p qatlamli shaxsiyati chuqur ochib beriladi. Ushbu roman orqali yozuvchi Pirmqul Qodirov tarixiy shaxsni tirik inson sifatida gavdalandiradi. Ushbu maqolada Bobur Mirzo shaxsiyatining badiiy talqini ilmiy asosda, falsafiy va estetik jihatdan keng tahlil qilinadi.

Bobur ota tomonidan temuriylar xonadoniga mansubligi aniq. U otasi Umarshayx avlodi haqida yozadi: “Sulton Abusaid Mirzoning to'rtinchi o'g'li edi. Sulton Abusaid mirzo Sulton Muhammad Mirzoning o'g'li edi. Sulton Muhammad mirzo Mironshoh mirzoning o'g'li edi. Mironshoh mirzo esa Temurbekning uchinchi o'g'li edi [1]. Shunda, Umarshayx Mirzo Amir Temurning nevarasi ya'ni turkiylarning barlos urug'idan, ona avlodi tomonidan mo'g'ullarga mansubligi alohida ta'kidlanadi. Bu haqda “Boburnoma” asarida “Umarshayx xotinlari” ruknida shunday yozilgan: “Qutlug' Nigorxonim Yunusxonning ikkinchi qizi, Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxonning egachisi edi. Yunusxon esa Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonning naslidandir”. Demak, Bobur Chingizxonning ham nabirasi hisoblangan. Ammo bu bilan Boburni to'liq mo'g'ulga chiqara olmaymiz chunki tarixchi Zaki Validiyning [2] yozganlari va uning shaxsan o'zi Qobul, Dehli va Agrada bo'lganini hisobga olsak, Boburning mo'g'ul emas, turkiy ekanligiga isbot bo'la oladi.



Bobur haqida biroz ma'lumot berib o'tgandan so'ng, uning ichki dunyosi va ruhiyatiga to'xtaladigan bo'lsak. Bobur shaxsiyatining eng muhim jihatlaridan biri uning ruhiy nozikligi va samimiyligidir. U kuchli iroda sohibi bo'lishiga qaramay, ko'ngil olamida nihoyatda sezgir inson bo'lgan desak adashmagan bo'lamiz. Masalan, uning quyidagi ruboiysi odamlarning bir-biriga g'animatligini, yaqinlarning borligini o'zi bir davlat ekanligini, bu o'tkinchi dunyoda ko'rayotgan har bir kunga shukronalik keltirish lozimligini juda ta'sirli tarzda ifodalab bergan:

*Ahbob, yig' ilmoqni farog'at tutungiz,
Jamiyatingiz borini davlat tutungiz.
Chun gardishi charx budurur, Tengri uchun,
Bir-birini necha kun g'animat tutungiz.*

Bobur faoliyati Temuriylar davlatining inqiroz yillariga to'g'ri keladi. Uning ruboiy va g'azallarida akslantirilgan holatlarda ham ana shunday ruh yaqqol namoyon bo'ladi:

*Ishqingda ko'ngil xarobdur men ne qilay?
Hajrinda ko'nglim parobdur men ne qilay?
Jismim aro pech-u tobdur men ne qilay?
Jonimda ko'p iztirobdur men ne qilay?*

Aslida, Bobur haqida eng ishonchli manba – uning o'z qalamiga mansub “Boburnoma” asaridir. Bu asar nafaqat tarixiy hujjat, balki yuksak badiiy qiymatga ega asar hisoblanadi. Unda Bobur o'z hayotini ochiq-oydin, ortiqcha pardossiz bayon qilgan. Boburning tarixiy shaxs sifatida asosiy xususiyatlaridan murakkab siyosiy muhitda voyaga yetganidir sababi Umarshayx vafotidan keyingi toj-u-taxt tashvishlari Boburni tinimsiz fikrlashga va izlanishga majbur qildi. Erta yoshdan taxt uchun kurash boshladi, otasining bevaqt o'limi tufayli u taxtga 12 yoshda chiqdi.

Boburning birgina maqsadi bobosi Amir Temur barpo etgan davlatni qayta tiklash va u bu yo'lda avvalo ko'hna shahar Samarqandni bosib olishga harakat qila boshladi. Samarqandni qo'lga kiritish yo'lida olib borilgan bir nechta janglardan so'ngina Bobur Samarqandni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Endi Bobur Mirzoga shoir va ijodkor sifatida qaraydigan bo'lsak, u o'zbek adabiyotida lirik shoir sifatida ham alohida o'rin tutadi. Chunki u she'riyatda samimiyligi, sodda ifoda va chuqur mazmunni ochib berishi bilan ajralib turadi. U yozgan har bir misralarda hayotiy falsafa, adolat va insoniy munosabatlar o'z aksini topgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Va shuni ishonib ayta olamanki, badiiy talqinda uning ijodi shaxsiyatining ajralmas qismi sifatida ko'rsatiladi.

Bobur – hukmdor sifatida qat'iyatli, ba'zan shafqatsiz qarorlar qabul



qilishga majbur edi. Ammo inson sifatida u nihoyatda rahmdil va nozik qalbli inson bo'lgan. U hukmdor sifatida jazolash, kurashish va qat'iyatli bo'lishi, inson sifatida esa kechirish, rahm qilish va mehr ko'rsatish tuyg'ulari o'rtasida ziddiyatlarga uchrardi.

Bobur Mirzo uchun Vatan eng muqaddas tushuncha edi. Ammo taqdir uni yurtidan uzoqlashtirdi. U har lahza Vatangga bo'lgan muhabbat ishqida yonar, undan uzoqda yashash majburiyati uni qiynardi. Garchi u Hindistonda hukmdor bo'lsa ham, qalban Movarounnahr bilan yashaydi. Bu sog'inch Bobur Mirzoni ruhiyat dunyosini yanada chuqurlashtiradi. U borgan yerida buzg'unchilik ishlarini emas, balki uni gullab-yashnashiga ulkan hissa qo'shgan. Bunyodkorlik ishlaridan anglab olishimiz mumkinki, Bobur har bir ishga uzoqni ko'zlab qo'l urgan. Ya'ni u borgan yerini talab ketishni emas, uni farovon etish, o'zidan yaxshi nom qoldirishni, yaxshilik urug'larini ekishni niyat qilgan va uni avlodlari Humoyun, Akbar, Shoh Jahon va boshqa sultonlar davom ettirishdi. Hind xalqi hali-hamon u urug'lardan o'sgan ezgulik mevalaridan bahramand bo'lishmoqda.[3]

“Yulduzli tunlar” asarida Bobur ba'zan siyosiy zarurat tufayli og'ir qarorlar qabul qiladi, lekin ich-ichidan bu qarorlardan iztirob chekadi. Bu holat esa uning qalbidagi insoniylik yo'qolmaganini ochib beradi. “Yulduzli tunlar” o'zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirov qalamiga mansub bo'lib, u tarixiy romanlar turkumiga kiradi. Asarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti haqida so'z yuritiladi. Romanda Bobur obrazining talqiniga to'xtaladigan bo'lsak, yozuvchi Pirimqul Qodirov Bobur obrazini bir nechta yo'nalishlarda yoritadi:

Asarda Boburning yoshlik davri, uning orzu-maqсадlari va ilk muvaffaqiyatsizliklari tasvirlanadi. Bu bosqichda u hali shakllanayotgan shaxs sifatida ko'rinadi. Keyinchalik esa, kurashlar davrida o'sib borayotgan Bobur doimiy janglar, siyosiy boshboshdoqlik va xiyonatlar fonida uning iroda kuchi va qat'iyati namoyon bo'ladi. Chunki Movarounnahrdek ulkan saltanatning parchalanib ketishi, Temuriylar sulolasining inqirozi, hokimiyat tepasiga kelish uchun bo'lgan taxt talashishlar, bir-biriga qilich ko'targan aka-uka, tog'a-jiyanlarning ayanchli ahvoli ham Boburni ham ma'nan, ham jismonan ezardi. Shuningdek, Bobur obrazida insoniy tuyg'ular alohida o'rin egallaydi. U nafaqat sevadi, balki o'z yaqinlaridan kelgan xiyonatlardan aziyat chekadi ammo sadoqatni juda qattiq qadrlaydi. Uka sifatida u zo'ravon beklardan biri bo'lmish Ahmad Tanbalning opasi Xonzoda begimga uylanishiga qarshi chiqadi, garchi Ahmad Tanbal bu rad javobidan so'ng ichki nizo va kurashlarni avj oldirishini hatto ba'zi beklarni Boburga qarshi qayrashiga aqli yetsa ham o'z jigarini o't ichiga tashlashdan voz kechadi.

Roman oxiriga yetib Bobur tajribali, dono va hayotiy haqiqatlarni chuqur anglagan shaxs sifatida tasvirlanadi. Endi u shoshqaloq emas, balki mulohazali.



Qarorlarni hissiyot bilan emas, aksincha tajriba bilan qabul qiluvchi, oddiy hukmdor emas hayot tajribasi bilan pishgan, ichki dunyosi boy, dono inson namoyon bo‘ladi asar so‘nggida.

Bobur Mirzoda ikki xil tabiat mujassam edi biri kuchli sarkarda bo‘lsa, ikkinchisi esa nozik qalbli, otashin shoir edi. U jangohda qat’iy va jasur yo‘lboshchi bo‘lishi, she’riyatda esa muloyim va sezgir bo‘lishni ham eplardi. Bobur kuch va nafislik uyg‘unlashgan siymo desak yangilashmagan bo‘lamiz. Chunki u bir tomondan jang qiladi, yurt boshqaradi, ikkinchi tomondan esa go‘zal she’rlar yozadi. Bu uning shaxsiyatidagi noyob uyg‘unlikni ko‘rsatadi. Hukmdor sifatida Bobur katta kuchga ega edi, ammo bu kuch ichki yolg‘izlik oldida qutqara olmaydi. Tashqi tomondan qudrat sohibi bo‘ldi, lekin ichki tomonlama yolg‘izlik va ishonchsizlik uni ezardi. Ehtimol, ma’lum ma’noda shu gap to‘g‘ridir, ya’ni buyuklik ko‘pincha yolg‘izlik bilan birga keladi.

Asarning dunyoga kelishi haqida biroz to‘xtaladigan bo‘lsak, muallif ushbu roman ustida naqd o‘n yil ishlagan. Bunday asarni yozishiga sabab Pirmqul Qodirov o‘zining talabalik yillarida Amir Temur va Bobur Mirzo shaxsiyatiga qiziqishi ekanini aytgan. Afsuslar bo‘lsinki, totalitar tizim davrida roman olti yil chop etilmay yotgan. Bundan tashqari, Bobur o‘zi ixlos qo‘ygan Xoja Ahror Valiyning nasrda bitilgan “Validiya” asarini she’riy yo‘nalishda tarjima qildi. Boburning mohir tarjimon sifatidagi qobiliyatini ochib bergan ushbu asar 243 baytli bu asar juda qisqa muddatda yakunlangan. Boburning o‘z e’tiroficha, aynan shu asar tarjimasidan so‘ng uning kasalliklari biroz yengillashgan. Chunki aynan shu vaqtda Bobur Mirzo tez-tez xastalikka uchrab turar, o‘z umrining oxirlab qolganini sezardi. Va bu yetuklik davrida hayotning o‘tkinchiligini chuqur anglaydi.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra Bobur tiriklik paytida ikkita devon tuzgan. Ularning birinchisi Movarounnahr va Afg‘onistonda, ikkinchisiga Hindistonda yozgan she’rlarini kiritgan. Bu haqda “Boburnoma” voqealari bayonida shunday deyiladi: “Hofiz Mir kotibning og‘a-inisi Samarqanddin kelib erdi, bu fursatta Samarqandg‘a ruxsat berib, Po‘lad Sultong‘a devonimni yibordim”[4] Bobur devoni Sharq mumtoz lirik janrlaridagi asarlar majmuasidan iborat. Hozirgacha dunyo qo‘lyozma fondlari va kutubxonalarida Bobur devonining 9ta qo‘lyozma nusxalari aniqlangan. Bundan tashqari, Hindiston milliy kutubxonasida saqlanayotgan notugal, lekin shoir ijodiy merosini aniqlashda muhim bo‘lgan bu qo‘lyozmalar bunga yaqqol misol bo‘ladi. Shuningdek, oxirgi yillarida u “Boburnoma” fasllari ustida ishladi, yangidan-yangi g‘azal va ruboiylar yaratdi, “Validiya” tarjimasini, “Xatti Boburiy” bilan bitilgan qit’a va namunalarni Movarounnahr va Afg‘onistonga, Xumoyun, Hindol va boshqalarga yubordi.

Zahriddin Muhammad Bobur umrining so‘nggi yillarida kasallikdan ko‘p



aziyat chekib 1530-yilda 47 yoshida Agrada vafot etadi. Keyinchalik o'zining vasiyatiga binoan xoki Qobulga ko'chiriladi va o'zi bunyod etgan "Bog'i Bobur"ga qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng Bobur o'z yurtida haqiqiy qadr-qimmatini topdi desak yangilishmagan bo'lamiz. 1993-yilda Prezident farmoniga muvofiq Bobur Mirzoning 510 yilligi keng nishonlandi. Andijon shahrida Bobur nomidagi universitet, teatr, kutubxona va milliy bog' ("Bog'i Bobur") tashkil etildi. Shunindek, shoirning ramziy qabr-maqbarasi ham bunyod etilgan[5]

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati buyuklik va insoniylik uyg'unligining yorqin namunasidir. U nafaqat, sarkarda va shoh, balki chuqur his qiluvchi, o'ylovchi va ijodkor shaxs sifatida ham qadrlanadi. Badiiy asarlar, xususan "Yulduzli tunlar" orqali Bobur siymosi yanada jonlanadi, uning ruhiy dunyosi va ichki kechinmalari kitobxon qalbiga ham ko'chib o'tadi. Ya'ni muallif asarda tarixiy shaxsni ideallashtirishdan ko'ra, uni murakkab hayot yo'lini bosib o'tgan inson sifatida tasvirlaydi. Shu bois Bobur obrazi har qanday davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi va yangi avlod uchun ilhom manbai bo'lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR

1. Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar". – Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2016.
2. Ahmad Zaki Validiy To'g'on "Turkiston maktublari – VI"
3. Pirimqul Qodirov "Avlodlar dovoni". – Toshkent: "Oltin qalam", 2023.
4. Zahriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma", "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2015.
5. <https://tafakkur.net/zahiriddin-muhammad-bobur.haqida>